

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDI TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDI MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE IMPACT OF ENERGY RESOURCES ON THE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Jabbarov Nurbek Atanazarovich

Trainee-teacher of the Department of Tourism
of Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract. This article is devoted to the theoretical significance of assessing the impact of energy resources on industrial development in Uzbekistan. The study systematizes scientific approaches to energy economics and energy security and provides a theoretical analysis of the relationship between energy consumption and industrial production. Furthermore, modern econometric approaches used to evaluate the impact of energy resources on industrial growth are reviewed, and conclusions relevant to current economic conditions are formulated.

Keywords: energy economics, industrial production, energy security, fossil energy resources, renewable energy sources, energy efficiency, industrial growth.

O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Jabbarov Nurbek Atanazarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Turizm kafedrası stajor-o'qituvchisi
E-mail: jabbarov.nurbek@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan O'zbekiston sanoatiga energiya resurslarining ta'sirini baholashning nazariy asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotda energiya iqtisodiyoti va energiya xavfsizligi bo'yicha ilgari surilgan ilmiy qarashlar umumlashtirilib, sanoat ishlab chiqarishi va energiya iste'moli o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: energiya iqtisodiyoti, sanoat ishlab chiqarishi, energiya xavfsizligi, qazib olinadigan energiya resurslari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, sanoat o'sishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N11>

O'zbekiston sanoatining rivojlanishi va barqarorligi energiya resurslariga bevosita bog'liqdir. Energiya tizimi iqtisodiyotning "qon tomir tizimi" sifatida barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini harakatga keltiradi. Shu bois, sanoat korxonalari va tarmoqlarda energiya resurslarining samarali boshqarilishi iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Azizbek Ulug'bekovich Nigmanovning tadqiqotida O'zbekiston sanoat tarmoqlarida energiya sarfi va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik batafsil tahlil qilingan. Maqolada energiya iste'moli iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi va energiya samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Korxonalar energiya resurslarini tejash va samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, shu bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [2].

Farhodjon Iminovning ishida sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash yondashuvlari keltirilgan. Muqobil energetika manbalarini joriy etish va energiyani tejash strategiyalari sanoat sektorining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy darajadagi strategiyalar energiya samaradorligi va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan [3].

Yusupov B. E. muqobil energiya manbalarini sanoatga integratsiya qilish orqali energiya qaramligini kamaytirish va texnik-iqtisodiy samaradorlikni oshirish nazariyasi asosida tahlil qilgan. Muqobil energiya manbalarini joriy etish, ayniqsa quyosh va shamol energiyasi, ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish va barqaror o'sishga hissa qo'shadi [4].

R. Allanazarov va M. Samadqulovning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida energiya samaradorligi va sanoat iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan. Barqaror rivojlanish tamoyillari asosida energiya resurslarini boshqarish sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, energiya resurslarini samarali boshqarish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashtirilishiga olib keladi [5].

Energiya resurslari va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro ta'sir ham muhim ahamiyatga ega. Mushafiq va boshqalar tomonidan olib borilgan adabiyot sharhida energiya samaradorligi iqtisodiy siyosat va o'sish modellariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Energiya intensivligi kamaytirilishi, davlatning soliq mexanizmlari, subsidiyalar va bozor mexanizmlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi [6].

Fenerich va boshqalar sanoat muhitida energiya samaradorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, energiya boshqaruvi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Sanoat korxonalarida energiya samaradorligi strategik ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi [7].

Muhokama. O'zbekiston sanoatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jihatdan energiya resurslari bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Har qanday sanoat tarmog'ining barqaror faoliyati uzluksiz va ishonchli energiya ta'minotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli sanoat taraqqiyotini bosqichma-bosqich tahlil qilish jarayonida energiya manbalarining tarkibi, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda sanoat ishlab chiqarishiga ko'rsatgan ta'sirini alohida ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, sanoatning dastlabki shakllanish davrlarida energiya asosan an'anaviy yoqilg'i manbalariga tayangan bo'lsa, keyingi bosqichlarda tabiiy gaz va elektr energiyasi yetakchi o'rinni egallagan. So'nggi yillarda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari sanoat barqarorligini ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda [8]. Bu jarayon energiya iqtisodiyotining nazariy jihatlarini chuqurlashtirishni, energiya va sanoat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ravishda o'rganishni talab etadi. Shuningdek, sanoat rivojlanishining har bir bosqichida energiya omilining roli turlicha namoyon bo'lgan: ayrim davrlarda energiya ishlab chiqarish hajmini oshirishning asosiy sharti bo'lgan bo'lsa, boshqa davrlarda energiya xavfsizligi va samaradorligi ustuvor vazifaga aylangan. Ayniqsa, zamonaviy bosqichda energiya diversifikatsiyasi, energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik sanoat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi [9].

Quyidagi jadvalda O'zbekiston sanoati rivojlanishining tarixiy bosqichlari hamda har bir davrda energiya resurslarining sanoat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri tizimlashtirilgan holda keltiriladi.

1-jadval.

O'zbekiston sanoati rivojlanish bosqichlari va energiya omilining roli¹.

Davr	Sanoat rivojlanish xususiyatlari	Asosiy energiya manbalari	Energiya omilining sanoatga ta'siri	Nazariy izoh
1920–1940-yillar (industrializatsiya bosqichi)	Og'ir sanoat, paxta tozalash, dastlabki mashinasozlik korxonalari tashkil etildi	Ko'mir, mazut	Markazlashgan energiya ta'minoti sanoatni joylashtirishda asosiy omil bo'ldi	Energiya – ishlab chiqarish omili sifatida klassik iqtisodiy modelda ko'rilgan
1941–1990-yillar (SSSR davri kengayish bosqichi)	Metallurgiya, kimyo, energetika va mashinasozlik sanoati rivojlandi	Tabiiy gaz, ko'mir, gidroenergiya	Arzon va barqaror energiya sanoat hajmining tez o'sishiga xizmat qildi	Energiya iste'moli va sanoat o'sishi o'rtasida o'sish gipotezasi ustun
1991–2000-yillar (o'tish davri)	Iqtisodiy pasayish, sanoat ishlab chiqarish qisqarishi	Asosan tabiiy gaz	Energiya ta'minotidagi uzilishlar sanoat hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatdi	Energiya xavfsizligi tushunchasi dolzarb bo'la boshladi
2001–2016-yillar (modernizatsiya bosqichi)	Sanoatni diversifikatsiya qilish, avtomobilsozlik, neft-gaz kimyosi rivoji	Tabiiy gaz, elektr energiyasi	Energiya samaradorligini oshirish sanoat rentabelligini yaxshiladi	Energiya–YaIM o'zaro bog'liqligi bo'yicha empirik tadqiqotlar faollashdi
2017–2023-yillar (islohotlar va liberallashtirish bosqichi)	Yangi sanoat zonalari, xususiy sektor ulushi oshishi	Gaz, quyosh va shamol energiyasi loyihalari	Energiya bozorini isloh qilish sanoat raqobatbardoshligini oshirdi	Energiya diversifikatsiyasi va barqaror o'sish konsepsiyasi
2024-yildan hozirgi davr (yashil transformatsiya bosqichi)	Yashil sanoat, energiya samarador texnologiyalar	Quyosh, shamol, gidro va gaz	Qayta tiklanuvchi energiya sanoat barqarorligini ta'minlash omiliga aylandi	Barqaror rivojlanish va energiya xavfsizligi integratsiyasi

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekiston sanoati rivojlanishining har bir tarixiy bosqichi energiya resurslari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Dastlabki industrializatsiya davrida energiya ishlab chiqarish omili sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda energiya xavfsizligi va energiya samaradorligi sanoat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi sanoatning barqaror va ekologik muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa energiya resurslarining sanoatga ta'sirini baholashning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishi energiya iste'molining ko'payishiga olib keladi. Shu bois energiya resurslari va sanoat o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni nazariy va empirik

¹ Ma'lumotlarga tayanib muallif ishlanmasi

jihtadan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya iqtisodiyoti nazariyasida energiya resurslarini yetkazib berish, ularni qayta ishlash, taqsimlash va samarali foydalanish jarayonlari iqtisodiy o'sishning ajralmas qismi sifatida qaraladi [10]. Ilmiy adabiyotlarda energiya iste'moli va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Xususan, o'sish gipotezasi energiya iste'molidan sanoat o'sishiga bir yo'nalishli ta'sir mavjudligini ta'kidlaydi. Saqlash gipotezasi esa sanoat rivojlanishi energiya iste'molining oshishiga olib kelishini ilgari suradi. Teskari aloqa gipotezasi ikki tomonlama bog'liqlikni asoslaydi, neytrallik gipotezasi esa ular o'rtasida sezilarli sababiy bog'liqlik yo'qligini ko'rsatadi. Sanoat tarmoqlarida energiya resurslarining ta'sirini baholashda zamonaviy ekonometrik usullar, jumladan, kointegratsiya tahlili, ARDL modeli, panel regressiya va Granger sabab-oqibat testi keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar energiya iste'moli va sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi qisqa va uzoq muddatli bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi [11]. Nazariy jihatdan shuni ta'kidlash mumkinki, energiya resurslarining sanoatga ta'sirini baholash energiya siyosatini shakllantirish, investitsiya qarorlarini qabul qilish hamda sanoatda energiya samaradorligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, qazib olinadigan energiya resurslari bilan bir qatorda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sanoat barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [12].

Natijalar. O'zbekiston iqtisodiy o'sishini ta'minlash va barqaror rivojlanish yo'lida energiya tizimidan samarali foydalanish muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda energiya resurslarini tejash, muqobil energiya manbalarini joriy etish va elektr energiyasini samarali ishlab chiqarish orqali YAIMni oshirish bo'yicha sezilarli natijalar kuzatilmoqda.

Energiya intensivligi, ya'ni ishlab chiqarish birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2024-yillar davomida O'zbekiston YAIM hajmi taxminan 55 % ga oshgan bo'lsa, shu davrda energiya sarfi bir YAIM birligi uchun 7,4 % ga kamaygan. Bu iqtisodiyotning kam energiya sarfi bilan yuqori natija ko'rsatishga o'tayotganini bildiradi. Energiya samaradorligi oshgani sayin ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va iqtisodiy raqobatbardoshlik kuchayadi [13].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, energiya sarfi 1 birlikka oshganda YAIM per capita taxminan 3,79 birlikka o'sadi. Bu ijobiy korrelyatsiya uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishda energiya tizimi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, energiya sarfi va YAIM o'sishidagi o'zaro bog'liqlik, energiya resurslarini oqilona boshqarish va diversifikatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi.

OECD va IEA ma'lumotlariga ko'ra, 1990–2024-yillar davomida O'zbekiston energiya intensivligini 70 % dan ortiq kamaytirgan. So'nggi o'n yillikda bu ko'rsatkich yana 40 % ga pasaydi. Shu davrda CO₂ emissiyalarining YAIMga nisbati ham sezilarli darajada kamaygan. Bu tendensiya iqtisodiyotning xizmat sektori va texnologik yangilanishi bilan bog'liq bo'lib, energiya tizimidan samarali foydalanish natijasida iqtisodiy o'sish ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashmoqda [14].

2016–2024-yillarda O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 mlrd kWh dan 81,5 mlrd kWh ga yetdi, ya'ni ~38 % ga oshdi. Shu davrda aholi boshiga ishlab chiqarilgan elektr energiyasi 2,200 kWh ga yetdi. Bu o'sish elektr energiyasini ishlab chiqarish

samaradorligi va modernizatsiya darajasining oshganini ko'rsatadi. Samarali energiya tizimi YAIM o'sishiga ijobiy hissa qo'shadi [15].

Xulosa. O'zbekiston iqtisodiy o'sishining barqaror va samarali yo'nalishi energiya tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, energiya tizimidan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy o'sishga, barqaror rivojlanishga va ekologik barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston energiya intensivligini pasaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Energiya samaradorligini oshirish natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan, YAIM hajmi esa o'sishda davom etmoqda. Statistika tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, energiya sarfi va YAIM o'sishi o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud bo'lib, iqtisodiy o'sish energiya tizimining samarali ishlashiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishi va energiya tizimining modernizatsiyasi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining joriy etilishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki CO₂ emissiyalarini pasaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, energiya resurslaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-166-son "Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz
2. Nigmanov, A. U. (2021). O'zbekiston sanoat tarmoqlarida energiya sarfini baholash. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/563>
3. Iminov, F. (2022). Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirish strategiyalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5243>
4. Yusupov, B. E. (2022). Muqobil energiya manbalari va ularning texnik-iqtisodiy ahamiyati. Journal of Scientific Research. <https://journalss.org/index.php/wsrj/article/view/2259>
5. Allanazarov, R., Samadqulov, M. (2023). Yashil iqtisodiyot sharoitida energiya samaradorligi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/6643>
6. Mushafiq, A., et al. (2023). Energy Efficiency and Economic Policy: A Review. MDPI Energies Journal, 16(5), 2381. <https://www.mdpi.com/1996-1073/16/5/2381>
7. Fenerich, D., et al. (2023). Energy efficiency in industrial environments: An updated review and a new research agenda. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/369583777_Energy_efficiency_in_industrial_environments_an_updated_review_and_a_new_research_agenda
8. Sagoroff, S. (1954). The concept of energy in economics. Weltwirtschaftliches Archiv, 72(1), 84–101.
9. Cherp, A., & Jewell, J. (2014). The concept of energy security: beyond the four As. Energy Policy, 75, 415–421.
10. Smelser, N.J. Energy economics and industrial development studies. Stanford University.
11. Hajko, V. The economics and econometrics of the energy–growth nexus.
12. Paramati, S.R., Sinha, A., Dogan, E. (2017). Renewable energy use and economic output. Environmental Science and Pollution Research, 24(15), 13546–13560.

13. www.stat.uz — O'zbekistonning energiya tizimi va iqtisodiy o'sish.
14. Econjournals.org.tr — Energiya sarfi va YAIM per capita o'sishi o'rtasidagi statistika.
15. OECD.org — Energiya intensivligi va emissiyalar tahlili. IEA.org — Qayta tiklanadigan energiya va iqtisodiy samaradorlik.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).